


### Farg`ona viloyatida kichik tadbirkorlik

2018 yilning yanvar-mart oylarida 22,1 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 foiz ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida 25 foiz, savdo sohasida 25 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 6 foiz, qurilishda 10 foiz, yashash va ovqatlanishda 5 foiz, tashish va saqlashda 5 foiz, aloqa va axborotda 5 foiz, sog'liqni saqlashda 2 foiz va boshqa sohalarda 17 foizni tashkil etadi.

#### 2018 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar–mart oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 858.6 mlrd. soʻmni (jami sanoat ishlab chiqarishining 31%) yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan oʼsish surʼati 95.1 %ni tashkil qildi;



– 332.9 mlrd. soʻmlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 50.9 %) oʼzlashtirildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan oʼsish surʼati 115.0 %ni tashkil qildi;



– 491.9 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 94.3%) bajarildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 117.1 % ni tashkil qildi;



– 1476.9 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (respublika jami xizmatlar xajmining 74.9%), 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 102.5 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 90.1 % yoki 2076.6 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 101.9 %) ni tashkil qildi) shakllantirildi;


– 32319.9 mln. AQSh dollari (umumiyligi eksport hajmining 33.4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 3591.7 mln. AQSh dollariga yoki 10 % ga kam;




- avtomobil transporti yuk aylanmasining 20.2 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 95.3 %) ko`payishi ta`minlandi;
- yo`lovchi aylanmasining esa 12.4% ga (umumiyligi yo`lovchi aylanmasining 94,9 % ) ko`payishi ta`minlandi;

Hududlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Dang'ara (152,7 mlrd.so'm), Marg'ilon shahri (133,2 mlrd.so'm), Buvayda (68,6 mlrd.so'm), Oltiariq (47,8 mlrd.so'm), Farg'ona tumani (46,0 mlrd.so'm), Rishton (30,6 mlrd.so'm), Yozyovon (26,8 mlrd.so'm) va Qo'shtepa (23,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


#### **Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiyligi hajmiga nisbatan % da)**



## 2018 yil yanvar-martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




## 2018 yil yanvar-martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo`yicha ko`proq chakana tovar aylanmasi hajmi Farg'ona (590,8 mlrd.so'm), Qo'qon (347,5 mlrd.so'm) va Marg'ilon (166,8 mlrd.so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi.

### **2018 yil yanvar-martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati**



Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Farg'ona (418,4 mlrd.so'm), Qo'qon (233,1 mlrd.so'm) va Marg'ilon (203,0 mlrd.so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning  
hududlar bo`yicha ulushi  
(% da)**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>	31,0	94,3	74,9
shaharlar:			
Farg'ona	16,9	95,1	48,2
Qo'qon	17,5	67,3	90,5
Quvasoy	16,4	97,6	96,9
Marg'ilon	100,0	100,0	98,3
tumanlar:			
Oltiariq	100,0	100,0	98,2
Qo'shtepa	100,0	100,0	100,0
Bog'dod	50,5	98,9	98,6
Beshariq	56,3	100,0	98,7
Buvayda	100,0	100,0	99,4
Quva	66,6	100,0	99,3
Uchko'prik	82,3	97,9	99,4
Rishton	62,8	100,0	93,1
So'x	100,0	100,0	100,0
Toshloq	26,3	98,7	98,0
O'zbekiston	77,8	100,0	99,7
Farg'ona	100,0	97,6	86,5
Dang'ara	100,0	100,0	98,4
Furqat	90,3	100,0	100,0
Yozyovon	100,0	78,2	98,6

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Marg'ilon shahri (100,0%), Buvayda (100,0 %), Dang'ara (100,0 %), Yozyovon (100,0%), Oltiariq (100,0%), Qo'shtepa (100,0%), So'x (100,0%), Farg'ona (100,0%) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qo'shtepa (100,0 %), So'x (100,0 %) va Furqat (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Marg'ilon (100,0 %), Oltiariq (100,0 %), Qo'shtepa (100,0 %), Beshariq (100,0%), Buvayda (100,0%), Dang'ara (100,0%), Quva (100,0%), Rishton (100,0%), So'x (100,0%), O'zbekiston (100,0%) va Furqat (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.


2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 43,6 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-martida 47,5 %). YaHM tarkibida kichik tadbirkorlikning pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2018 yil I-chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 84 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.


Kuzatuv ma`lumotlari tahlili, respondentlarning 35,7 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 56,0 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilishda 62,5 % va 37,5 %, savdoda – 17,6 % va 70,6 %, xizmatlar sohasida – 46,2 % va 46,2 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 60,0 % va 20 % hamda sanoat sohasida – 25,0 % va 67,9 foizni tashkil qilganini ko`rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar savdoda – 11,8 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 20,0 %, xizmatlarda – 7,7 % sanoatda – 7,1 foizni tashkil qildi.

### **Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil I-chorak uchun**



## Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul J.Artikov  
Aloqa telefoni (0-371)230-87-35